

---

“Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida “O‘qchi” mahallasidagi ichki yo‘llar ravon bo‘lmoqda

Qo‘shtepa tumanidagi “O‘qchi” mahalla fuqarolar yig‘inida 1019 ta xonadonda 5078 nafar aholi istiqomat qiladi. Mahallada 10 ta ko‘cha mavjud.

“Tashabbusli byudjet” loyihasining joriy yilgi ikkinchi bosqichida mahallaning ta‘mirlash muhtoj bo‘lgan ichki yo‘llarini ta‘mirlash bilan bog‘liq tashabbuslari 5000 tadan ortiq ovoz bilan g‘olib deb topilgan edi.

Ayni kunlarda, tashabbus natijasida mahalladagi Yangi Farg‘ona ko‘chasining 3000 metrdan ortiq qismida astfaltlashtirish ishlari boshlandi.









2024-10-31 08:02:16